

## METHODS OF STUDYING THE PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS AND CREATING DIDACTIC OPPORTUNITIES IN THE DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVITIES

### BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISH VA IJTIMOY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK IMKONIYATLAR YARATISH USULLARI

*Khakimova Sarvinoz Sharifjan kizi*

*FarDU Student of pedagogy-psychology*

*Email address: sarvinozhakimova122@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini dars jarayoniga ijtimoiy faolligini rivojlantirish, maktab muhitiga moslashishlari va ta'lim tarbiya jarayonida ularning psixik holatlarini har tomonlama o'rganish, pedagogik shart sharoitlar yaratish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinf o'quvchilari, maktab, o'qituvchi faoliyati, didaktik talablar, ijtimoiy faoliyat, didaktik imkoniyat, o'quvchining intellektual salohiyati, pedagogik texnologiyalar, faollik.

**Annotation:** This article reflects on the development of social activity of Primary School students in the course process, their adaptation to the school environment and the comprehensive study of their psychic States in the educational process, the creation of pedagogical conditions.

**Keywords:** Primary School students, school, teacher activity, didactic requirements, social activity, didactic capacity, intellectual potential of the student, pedagogical technologies, activity.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается развитие социальной активности учащихся начальных классов в ходе урока, их адаптация к школьной среде, всестороннее изучение их психических состояний в процессе обучения, создание педагогических условий.

**Ключевые слова:** младшие школьники, школа, деятельность учителя, дидактические потребности, социальная активность, дидактические возможности, интеллектуальный потенциал ученика, педагогические технологии, деятельность.

Mamlakatimizda har qanday ta'lim muassasini rivojlantirish, ularda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, jamiyat farovonligini yuksaltirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasidagi nutqida- "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bo'liq. Bizning

asosiy vazifamiz- yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iboratdir." Haqiqatdan ham yurtimizda bolaga e'tibor yuqori darajada. Bizning jamiyatimizda yosh avlodni intellektual salohiyati o'sishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Hatto maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab bolani tarbiyalash lozim, hamda maktab hayoti, muhit bolaning ertasi uchun eng ahamiyatli davrdir deb qaralmoqda. Maktabga borish bola hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolaga yangi bir dunyoni ochib beradi. U endi "O'quvchilik" maqomini oladi. Bu albatta oson emas. Bolada bu davrda katta bir inqiroz ro'y beradi. Uning erkin hayoti endi tartib intizomlar qurshovida qoladi. Avval bolaning maktab hayotiga ko'nikishi biz o'ylaganchalik oson ish emas. Bu davr hayoti uning ham fiziologik o'zgarishiga, ham psixologik holtiga o'z ta'sir kuchini ko'rsatmay qolmaydi. O'qituvchi esa bolaning yosh xususiyatlarini va psixik jarayonlari (diqqat, nutq, idrok, tafakkur, xayol, xotira, sezgi kabilar), psixik holatlari (emotsiya, hayratlanish, ishonchlik, ijodiy ruxlanish, etiqodlilik, apatiya, qiziquvchanlik va tetiklik) kabi xususiyatlariga e'tibor bilan tarbiya jarayonini bog'lay olishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, ularni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish yuqori darjada samaralidir. Bolaning ongi va tafakkuri shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiiq eta olishi, ta'limning yangicha usullarini izlab topishi va ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanishi boshlang'ich sinf o'quvchilariga qo'yiladigan talablardan biridir. Bola boshlang'ich sinfligida ko'proq o'qituvchisini o'zining ideal insoni deb biladi. Uning aytganlarini qilishga harakat qiladi va o'qituvchisidan maqto'v eshitish uchun bor kuchi bilan kurashadi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'quvchi psixologiyasini ham yaxshi bilishi lozim. Bola darsga qiziqyaptimi, u bugun darsga qanday kayfiyatda keldi, darslarda o'z fikrini bayon eta olyaptimi? kabi savollarga o'qituvchi javob topishi va bolalarga muloyimlik bilan darsni mazmunli qilib tushuntirishi darkor. Chunki ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Zamonaviy texnologiyalarni ham ta'lim jarayoniga tadbiiq etish, intellektual salohiyatni oshirish uchun xizmat qiladi.

Mamlakatning ertangi kuni esa, dunyoqarashi keng maktab bolalari va zamonaviy, salohiyatli o'qituvchi-murabbiylarga ko'p jihatdan bog'liqdir. Chunki ular bergan ta'lim- tarbiya shaxsning butun hayotiga poydevor bo'ladi. Bir nazar tashlaylik: quruvchilar uy bino qilishayotganda boshidan mustahkam qilingan uy , har qanday talofotlarga bardosh bera oladi. Inson hayotida ham maktab- uning birinchi ilm o'chog'i, ilk ilm maskanidir. Shuning uchun ham ota-onalar o'z farzandini qiziqishlariga e'tiborli bo'lib, o'z fikrlarini maqullamagan holda, bola qiziqqan soha tomon yo'naltirishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki kichik maktab yoshidagi bolani

e'tibori faqat o'zi qiziqqan faniga aratiladi. Ta'lim o'quvchining bilish qobiliyatini o'stiruvchi asosiy omildir. O'quvchilar qobiliyatini o'stirishga qaratilgan tizimlar muayyan didaktik qoidalar tarzida namoyon bo'ladi. Didaktik tamoyillarda ta'limning mazmuni va jarayonlariga qo'yilgan talablar belgilanadi. Ta'lim jarayonini tashkillashtirishda olib boriladigan:

#### DARSGA QO'YILGAN DIDAKTIK TALABLAR:

- ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarning birligini ta'minlash;
- dars yaxshi rejalashtirilgan, tayyorlangan, jixozlangan va tashkil etilgan bo'lishi kerak;
- ilmiy va uslubiy jixatdan to'g'ri tashkil etilgan dars tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi, ilmiy yo'nalish uchun qulay hisoblanadi, o'quv materiallarini puxta va ongli tarzda o'zlashtirishga, ko'nikmalar shakllanishiga imkon beradi;
- darsning tuzilishi ilmiy jixatdan bir maqsadga va aniq vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak;
- darsga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tish chog'ida o'qitish va tarbiyalashga nisbatan zamonaviy psixologik-pedagogik va uslubiy yondashishni nazarda tutish;
- dars o'tilishi shakliga ko'ra qat'iy bir tizim bo'yicha olib boriladi: muayyan bog'lanishdan, darsning maqsadlari va vazifalarini belgilashdan, materialni tushuntirish, mustahkamlash va takrorlashdan, uy vazifasini berishdan iborat bo'ladi, darsning kislari o'zaro bog'liq bo'lishi va har biri keyingisini tayyorlash uchun asos bo'lishi kerak;
- darsda didaktik tamoyillarni to'g'ri belgilash va o'qitish usullaridan unumli foydalanish zarur; ko'rgazmali qurol va texnik vositalardan unumli foydalanishni tashkil etish;
- o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishini nazorat qilish;
- darsni oldingi va keyingi o'tilgan mavzular bilan bog'lash;
- o'qituvchilar o'qish-bilish faoliyatining samaraligini o'qituvchining rahbarlik (yetakchilik) roli bilan qo'shib olib borish;
- darsda o'quvchilarning shaxsiy fikriga tayanish. Shu kabi talablardan iboratdir. Boshlang'ich sinflarda ham o'quvchini darsga qiziqtirish uchun turli didaktik imkoniyatlar yaratish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu yoshdagi bolani o'qituvchi o'z mahoratini o'quvchini o'z darsiga jalb eta olayotganidan bilib olamiz. Bu vaqtda bolaga o'ta qattiqqo'llik qilmaslik kerak. Majburlov, qistovlar, qattiqqo'llik bilan tanbex berish kabi salbiy holatlar uni darsga hatto maktabdan sovushiga olib keladi. O'quvchilarni bilimni o'zlashtirishiga qarab uch guruhga ajratamiz:
  - faol ya'ni intellektual salohiyati yuqori bo'lgan o'quvchilar. Ular bilimni osonlik bilan o'zlashtira oladilar.

-o'rtacha salohiyatli bolalar. Bunday o'quvchilar orasida iqtidorli o'quvchilar ko'p uchraydi. Ular o'zlari qiziqqan fandan bilimni zo'r egallaydilar va natijalari ham a'lo ko'rsatkichda bo'ladi.

-passiv o'quvchilar. Bunday o'quvchilar alohida e'tiborga muhtojdirlar. Ular bir oz o'yinqaroq va sho'x bo'ladilar. Bu kabi o'quvchilar toifasini o'yindan bilim tomon undash bir oz mashaqqat talab etadi.

Boshlang'ich sinflarni darsga jalb etishda professional o'qituvchilar turli metodlardan va didaktik imkoniyatlardan foydalanadilar. Dars jarayonida didaktik imkoniyatlar:

-Multifilmlar orqali o'rgatish. Bolalarning sevimli mashg'ulotlaridan biri bu albatta multfilm tomosha qilish. Shunday bolalar borki, tomosha qilgan multfilmlarini hatto yodlab oladilar. Chunki insonda ko'z xotirasi ham kuchli rivojlangan bo'ladi. Shuning uchun har qanday darsni multfilmlarga muvofiqlashtirib o'tilsa bola xotirasida ham muhrlanib qolishi va darsni mukammalroq o'rganishi kuzatiladi.

-Qiziqarli o'yinlar orqali o'rgatish. Bizga ma'lumki bu yosh davrda bolalarning yetakchi faoliyati – bu o'yin hisoblanadi. Bola bunga jon – jahti bilan kirishadi. Kayfiyati ham yaxshilanish holatlari kuzatiladi. Bu o'rgatish usuli bolaga juda foydali. Bola bunda birdamlikni, mehr-oqibat, sodiqlik va birodarlik xususiyatlarini shakllantiradi. Yana bir ijobiy tomoni faol bo'lmagan o'quvchilarni faollashtiradi.

Quvnoq topishmoqlar, tez aytishlar orqali o'rgatish. Bu usul ham darsning muhitini o'zgartirib, yuqori kayfiyat ulashadi, o'quvchilarni faolligini oshiradi va boshqa didaktik o'yinlar bilan darsga ijobiy muhit olib kirs va tashkillashtirsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirgi sharoitda ijtimoiy talablar, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojlariga muvofiq ta'lim tobora takomillashtirilib, yangi metod va shakllari ishlab chiqilmoqda. Bunday say-harakatlarning barchasi yosh avlodni har tomonlama bilim va yetuk bo'lishlari uchun rivojlantirilmoqda. Maqolamni yakunini quyidagi jumlar bilan nihoya qilmoqchiman. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilim bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".

#### Adabiyotlar:

1. Педагогика /Под ред. П.И.Пидкасистого/ – М., 2003.
2. Ходжыев В.Х. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: Sano-standart, 2017.
3. Pedagogika. // M.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. Darslik. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
4. А.С.Калдибекова. Умумий педагогика. –Т.ТДПУ нашриёти, 2013.
5. "Boshlang'ich sinf o'quvchilariga aniq va tabiiy fanlardan ta'lim berish yo'llari" fanidan o'quv uslubiy qo'llanma maajmui.